



MAVLONO RUMIY RUBOIYLARIDA TASAVVUFIIY G'OYALAR IFODASI

*Buxoro davlat universiteti filologiya fakulteti tojik tili yo'nalishi 4 bosqich
talabasi G'AFFOROVA SHAHNOZA*

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada nafaqat fors-tojik balki butun jahon tasavvuf adabiyotiga o'zining bebaho g'oyalari, fikrlari bilan insonlar fikrlashi dunyoqarashiga o'zining maqsadini singdira olgan tasavvufiy yirik namoyanda Hazrat Jaloliddin Rumi va uning tasavvufiy g'oyalari ruboiylaridagi hamohanglik ruboiylarining mavzulari ochiqlab berilgan. Yana ruboiylar, g'azallari ustida olib borilgan izlanishlar va bu izlanishlarning asoschilari haqida ham aytib aytib o'tilgan.

KALITSO'ZLAR: Rumi, ruboiy, dunyoqarash, tasavvuf, adabiyot, g'oya, ilmiy, ma'naviy, adabiyot, diniy, dunyaviy, tadqiqotchilar, rumiyshinoslar, mavzu, irfoniy, axloqiy, ishqiy, badeiy....

KIRISH: Rumi ruboilarning adabiyotdagi ahamiyati: Bugungi kunda fors-tojik zamonaviy adabiyotshunosligida tasavvuf bilan bog'liq turli mavzularni o'rganish bir guruh tadqiqotchilarning izchil sa'y-harakatlari bilan yangi bosqichga chiqdi. Tasavvuf va uning fors-tojik adabiyotiga ta'siri borasida e'tiborga loyiq ko'plab ilmiy izlanishlarni keltirib o'tish mumkin. Haqiqatdan ham, tasavvuf bizning falsafa, ijtimoiy qarashlar va adabiyotimiz bilan chambarchas bog'liq bo'lib, har davrda ilmu hunar ahlining e'tiborini tortib kelgan. Tasavvuf — bu olam va insonni kashf va zavq orqali tushunishga intiladigan falsafiy-irfoniy oqimdir. Bu yo'nalishning mashhur vakillari Abubakr Shibliy, Mansur Halloj, Junayd Bag'dodiy, Abusaid Abulxayr, Ahmad Jomiy, Abuhomid G'azzoliy, Abulmajid Sanaiy, Fariduddin Attor, Jaloliddin Rumi va boshqalar bo'lgan.

Bu zotlar orasida ayniqsa Jaloliddin Rumi (Mavlono) alohida o'ringa ega bo'lib, u jahonga mashhur orif sifatida tan olingan. Tadqiqotlar, asosan, uning



dunyoqarashi, irfoniy, ijtimoiy va axloqiy g'oyalari hamda shaxsiy kamolotiga bag'ishlanadi.

Mavlono o'z ijodida irfoniy ma'nolarni o'ta nozik, shirali uslubda bayon etgan ulug' shoirdir. U Mavlaviylar tariqatining orif oshiqalaridan biridir. Uning "Masnaviyi ma'naviy" asari fors-tojik adabiyotida tengsiz durdona hisoblanadi. Shuningdek, "Devoni kabir" nomli devoni bor bo'lib, unda diniy, falsafiy va axloqiy g'azallar jamlangan. Bu asarlarda shoirning orifona dunyoqarashi, ruhiy tafakkuri va ilohiy kamoloti yorqin ifodalangan. Bu san'atkormona yondashuvni uning masnaviylari, g'azallari hamda ruboiylarida ko'rish mumkin.

Biz bu kichik tadqiqotimizda Mavlono ijodidagi ruboiylarga e'tibor qaratmoqchimiz. Garchi g'azal va masnaviylari ko'proq mashhur bo'lsa-da, ruboiylari ham shoir ijodining ajralmas qismi bo'lib, afsuski, kamroq o'rganilgan.

Mavlono ruboiylari "Devoni kabir"ning bir bo'lagi bo'lib, ko'p bora alohida holatda nashr etilgan. G'arb olamida ham ularning eng go'zallaridan namunalar tarjima qilinib, kitob tarzida chop etilgan. Masalan, amerikalik musulmon psixolog Ibrohim Gamard butun ruboiylarni ingliz tiliga tarjima qilgan. Shuningdek, mashhur amerikalik mavlonoshunos Kolman Barksning tadqiqotlari alohida e'tiborga loyiqdir.

Yana bir tarjimon — Yuhan Kristof Burgel, Shveysariyalik universitet professori, sharqshunos va islomshunos bo'lib, ko'plab forsiy matnlarni, xususan, ruboiylarni tarjima qilgan. 2003-yilda u "Devoni kabir"dan 75 ta g'azal va 31 ta ruboiyni nemis tiliga tarjima qilib, sharh va tafsirlar bilan chop ettirdi.

Ruboiyning mohiyati — bu qisqa, ammo chuqur ma'noli she'r bo'lib, Mavlono aynan shu shakl orqali ham ulkan ma'naviy haqiqatlarni yetkazgan. Mavlononing ruboiylari, asosan, ishqiy, irfoniy, pand-nasihatlil, falsafiy va axloqiy mavzularni o'z ichiga oladi. Unda inson va olam, Alloh va tabiat, ruh va mavjudot o'rtasidagi munosabatlar tasvirlanadi.

Misol uchun ushbu ruboiyni olaylik:



Ovozi senga dilimiz bag'ishlagay,
Tun-kunduzda shodon-u go'yo bo'lgay.
Ovozing uzilsa, biz ham qulamiz,
Nay kabi shirin ohangda bo'lgay.

Yuqoridagi kabi misralar orqali Mavlono ruboiylarini quyidagi asosiy toifalarga ajratish mumkin:

1. Irfoniy ishq ruboiylari:

Mavlono eng avvalo orif shoir bo'lib, qalb orqali ruhiy haqiqatni anglashga ishongan. Bu ishqni u "ma'naviy ishq", "ilohiy muhabbat" deb atagan. Ular ko'pincha Qur'on oyatlari, hadislar va diniy rivoyatlarga tayangan holda yozilgan.

Masalan:

Ishqdan boshqa yo'q hamdardim menga,
Na boshlanish, na oxir bordir menga.
Jonim ichra dod soladi bu ovoz,
Ey ishqqa sust, yo'lni och menga!
Yoki yana:
Sharobsiz mastmiz, chellob keraksiz,
Rubob-u changsiz bazmimiz shodliksiz emas.
May ham yo'q, sozchi ham yo'q, lekin biz — mast,
Qurigan mastlar misolidamiz.

2. Falsafiy va ilohiy yondashuv:

Ba'zi ruboiylarda falsafiy fikrlar — ya'ni hayot va o'lim, ruh va jism, aslga qaytish g'oyalari ifodalanadi:

Tana sirini bilganida jon,
Tuproq bilan aralashdi pok gavhar.
Tana sirini parchalab, osmonga chiqdi,
Tuproq — tuproqqa, poklik — poklikka.
Yoki:



Avval osmondan yerga tushgan eding,

Endi esa yerdan osmon sari ketasan.

3. O'zlikni anglash va ruhiy izlanish:

Sening joningda boshqa bir jon bor,

Tana tog'ida yashirin durr bor.

Agar uni istasang, yur, izla,

Boshqa joyda emas, o'zingda bor.

4. Ilohiy muhabbat ifodasi:

Yo'lning dardi ustida yuragimni qo'ydim,

Faqat seni ko'rish uchun yuragimni ochdim.

Bugun yel esar-yel sening hidin olib keldi,

Shukronasiga shamolga berdim yuragimni.

Va yana:

Ishq yo'limiz, yo'lboshchimiz, Payg'ambarimiz,

Biz ishqdan tug'ilganmiz, onamiz ham ishq.

Ey onamiz, yashirinding pardamiz ichra,

Kofirlik tabiatimizdan yashirgansan.

Yoki nihoyat:

Ey Ishq, jonu taning jonisanu jon,

Ey Ishq, husnlar tuzidaguvchisanu kon.

Ey Ishq, durlar sening koningdandir,

Bu kabi ruboiylar yaratishda inson avvalo haqni tanishi, o'zini anglashi va dunyoni moddiyligini unga bog'lanib qolmaslikni, inson eng avvalo insonligini bilishi zarur deb o'ylayman. Rumiylar Hazratlari ana shunday kamolotga erishgan o'zini tanigan va koinot markazida inson turishini anglagan shaxsiyat edi.

Xulosa qilib aytganda Jaloliddin Rumiylarida **irfoniy (ma'rifiy-tasavvufiy) g'oyalar** markaziy o'rin tutadi. Uning ruboiylari insonning ichki kamoloti, ilohiy ishq va Haqni anglash yo'lidagi ruhiy sayohatini ifodalaydi. Shoir ishqni eng oliy kuch sifatida talqin qilib, nafsni yengish, qalbni poklash va o'zlikdan



kechish orqali Haqqa yetishish mumkinligini ta'kidlaydi. Uning ruboiylari insonni mehr-muhabbat, sabr va ruhiy uyg'oqlikka chorlab, komil inson darajasiga erishish g'oyasini ilgari suradi. Bunday g'oyalar hali hanuz tirik qalblarda yashaydi va shunday aqidalar ostida tarbiyalangan har bir yosh avlod, har bir yurt farzandi bu o'sha yurtning porloq kelajagiga rivojlanishiga o'z hissasini qo'sha oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jaloliddin Rumiy. "Masnaviy Ma'navi". – Toshkent: Sharq, 2005. – 6 jild. – B. 1–1200.
2. Jaloliddin Rumiy. "Fihi Ma Fihi". – Dushanbe: Irfon, 2004. – B. 1–150.
3. Zarrinkoob A. "Xudoga yetish yo'lida qadam-baqadam": Jaloliddin Rumiy hayoti, fikri va ruhiy sayohati. – Tehran: Elmi, 1980. – B. 1–394.
4. Kilicheva K., Klicheva, G. Jaloliddin Rumiyning tasavvufiy va falsafiy merosi // Xalqaro insoniyat, adabiyot va san'at jurnali. – 2022. – 5-jild, 1-son. – B. 1–4. – URL:
https://www.researchgate.net/publication/357170633_Sufi_and_philosophical_heritage_of_Jalaluddin_Rumi
5. Samatov J. Jaloliddin Rumiy Masnavisining falsafiy va hermenevtik tahlili // Sciental Journal of Education Humanities and Social Sciences. – 2025. – 3-jild, 3-son. – B. 61–64. – URL:
<https://scientaljournals.com/index.php/SJEHSS/article/view/45>
6. Jaloliddin Rumiy asarlarining zamonaviy tasavvuf falsafasidagi o'rni // Yevropa interdisipliner tadqiqotlar va rivojlanish jurnali. – 2025. – 38-jild. – B. 116–119. – URL: <https://ejird.journalspark.org/index.php/ejird/article/view/1400>
7. Jaloliddin Rumiy qarashlaridagi falsafiy masalalar // World Bulletin of Social Sciences. – 2025. – 44-jild. – B. 41–42. – URL:
<https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/5074>
8. Akramova N., Isoyeva, M. Jaloliddin Rumiyning falsafiy qarashlari // ILM FAN XABARNOMASI. – 2025. – 8-jild, 1-son. – B. 15–22. – URL:
<https://worldlyjournals.com/index.php/Yangiizlanuvchi/article/view/12775>



9. "Ilohiy ishq poetikasi": Rumiyning Masnavisidagi ishq metaforalari // Sufizm instituti jurnali. – 2025. – 4-jild, 1-son. – B. 101–126. – URL: <https://dergipark.org.tr/en/pub/taed/issue/92364/1660985>

10. Shiblii No'mon. Sawanih Mavlana Rum. – Tehran: Elmi, 1985. – B. 1–250.